

Abdulaziz M. YAKHSHILIKOV,
Research Fellow of the Imam Maturidi
International Scientific Research Center.
A.Qadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan.
E-mail: abduazizyaxshilik@gmail.com

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2024-3/6

«TA'VILOT AL-QUR'ON» ASARIDA OYATLAR SABABI NUZULINING RIVOYAT QILISH USHLARI

THE METHODS OF NARRATING THE REASONS FOR THE REVELATION OF VERSES IN THE WORK «TA'WILĀT AL-QUR'AN»

МЕТОДЫ ПОВЕСТВОВАНИЯ О ПРИЧИНАХ НИСПОСЛАНИЯ АЯТОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ТА'ВИЛАТ АЛЬ-КУР'АН»

KIRISH

Abu Mansur Moturidiy o'zining «Ta'vilot al-Qur'on» asarida 222ta oyat uchun 302ta sababi nuzul rivoyatini keltirgan. «Ta'vilot al-Qur'on»da kelgan sababi nuzul rivoyatlari ikki xil shaklda, ya'ni lafzan (so'zma-so'z) va ma'nani (mazmunan) naql qilinganini ko'rish mumkin.

Imom Moturidiyning so'zma-so'z naql qilgan rivoyatlari soni juda ozchilikni tashkil qiladi. Faqat ikkita rivoyatning matni dastlabki davr asarlaridagi kabi ayni shaklda keladi. Mazkur rivoyatlarning birini Imom Moturidiy Hasan Basriydan rivoyat qilgan. Unga ko'ra, musulmonlarning bir guruhi o'rtasida janjal kelib chiqadi, oxir-oqibatda ular oyoq kiyim va qo'llari bilan urishib ketishadi. Shunda Alloh taolo «Agar, mo'minlardan ikki toifa o'zaro urishib qolsalar, darhol ular o'rtasini isloh etingiz!...» (Hujurot surasi, 9-oyat), oyatini nozil qiladi (Moturidiy, 2005-2011:68). Bu rivoyat Abdurazzoq ibn Hammom (Sam'oni, 1419/1911:221) va Tabariyning (Jarir Tabariy, 1415/1995:167) asarlarida ayni lafzar bilan so'zma-so'z qayd etilgan. Ikkinchi rivoyat esa Baqara surasining Amr ibn Jamuh Ansoriydan naql qilingan «Sizdan (ey, Muhammad!) qanday ehson qilishni so'raydilar. Ayting: «Nimaniki xayr-ehson qilsangiz, ota-ona, qarindoshlar, yetimlar, miskinlar va musofirlarga qilingiz! Alloh har qanday

qilgan ehsonlaringizni bilib turuvchidir» (Baqara surasi, 215-oyati) oyati bilan bog'liq sababi nuzul rivoyatidir. Unga ko'ra, Amr ibn Jamuh Payg'ambar (s.a.v.)dan kimga va qancha miqdorda infoq qilishni so'raganida Alloh mazkur oyatni nozil qiladi (Ta'vilot al-Qur'on). Bu rivoyatning matni ayni sanad va lafzlar bilan Muqotil tomonidan keltirilgan (Muqotil ibn Sulaymon, 1423/2002:183).

Imom Moturidiy tomonidan yaqin lafzlar bilan naql qilingan rivoyatlar asosan uzun matnlardan iboratdir. Imom Moturidiy umumiy uslub sifatida rivoyatlarni ko'pincha qisqartirib yoki ma'nani naql qilsa-da, ba'zan rivoyatlarning to'liq matniga ham o'rin ajratgan. Bu kabi o'rinlarda matnda o'zgarish qilmasdan, rivoyatni ancha yaqin lafzlar bilan naql qilgan. Masalan, Imom Moturidiy «Biror payg'ambar uchun, to yerda (dushmanlarga) zarba bermagunicha, asirlarga ega bo'lish mumkin emas...» (Anfol surasi, 67-oyati) oyatining nozil bo'lish sababi bilan bog'liq rivoyatlardan ancha uzunroq bo'lgan quyidagi rivoyatni keltiradi. Unga ko'ra, Payg'ambar (s.a.v.) Badr kuni asir olinganlar haqida sahobalari bilan maslahatlashib, Abu Bakr (r.a.)ga: «Ey, Abu Bakr! Ular haqida nima deysiz?», deydi. U: «Ey, Rasululloh! Ular sizning qavmingiz va qarindoshlaringizdir. Ularni omon qoldiring va ular haqida tushunib harakat qiling. Alloh ularning tavbasini qabul qilishiga umid qilinadi», deydi. Umar (r.a.): «Ey, Rasululloh! Ular sizni inkor qilishib, yurtigingizdan haydab chiqarishdi. Shuning uchun ularni keltirib, bo'yinlarini kesing», deydi. Abdulloh ibn Ravoha esa: «Ey, Rasululloh! O'tini ko'p vodiylar izlang. So'ngra ularni o'sha yerga qo'ying va ustilaridan olov yoqing», deydi. Asirlar orasida bo'lgan Abbos Payg'ambar (s.a.v.)ga: «Sen qarindoshlik rishtalarini uzding», deydi. Payg'ambar (s.a.v.) sukut saqlab, biror javob qaytarmaydi. Keyin o'rnidan turib ketadi. Payg'ambar (s.a.v.) ketgach, ba'zilar «Abu Bakrning fikrini ma'qullaydi, Umarning fikrini ma'qullaydi deyishsa, boshqalari Abdullohning fikrini qabul qiladi, deyishadi. Shunda Payg'ambar (s.a.v.) ularning oldiga chiqdi va «Alloh ba'zilarining qalblarini yumshatadi va ularning qalblari sutdan ham yumshoqdir. Alloh ba'zilarining qalblarini esa qattiq lashtiradi va ularning qalblari toshdan-da qattiq bo'ladi. Ey Abu Bakr, sizning misolingiz Ibrohim (a.s.)ga o'xshaydi, u: «Ey, Rabbim! U (sanam)lar ko'p odamlarni yo'ldan o'zdirdi. Bas, kim menga ergashsa, ana o'sha mendandir (mening dinimdadir). Kim menga itoatsizlik qilsa, yana O'zing kechirimli va mehribonsan» (Ibrohim surasi, 36-oyat), degan edi. Yana ey Abu Bakr! sizning timsolingiz Isoga

Annotatsiya. Maqolada Imom Moturidiyning «Ta'vilot al-Qur'on» asarida sababi nuzul rivoyatlari ikki asosiy shaklda ifodalangani: lafzan (so'zma-so'z) va ma'nanimazmunan) yoritilgan. Lafzan rivoyatlar, ya'ni aynan so'zma-so'z keltirilgan rivoyatlar kamroq uchraydi. Masalan, Hasan Basriydan keltirilgan rivoyatda, musulmonlar o'rtasidagi kelishmovchilik sababli «Agar, mo'minlardan ikki toifa o'zaro urushib qolsalar, darhol ular o'rtasini isloh etingiz!», oyati nozil bo'lgani aytiladi. Masalan, Badr asirlari haqida bo'lgan rivoyatlarda tafsilotlar to'liq keltiriladi. Ushbu uslub Imom Moturidiyning rivoyatlarning muhim qismlarini batafsil taqdim etganini ko'rsatadi.

Ma'nanimazmunan rivoyatlar, ya'ni mazmunan keltirilgan rivoyatlar ko'proq uchraydi. Misol uchun, Abu Tolibning vafoti bilan bog'liq rivoyatlarda sababi nuzul qisqacha bayon etilgan. Imom Moturidiyning tafsir uslubida rivoyatlarni qisqartirishda, u «أو نحو هذا من الكلام» (yoki shu kabi so'zlar) kabi iboralarni ishlatgan. Ba'zan esa «و في الحديث طول» (va gap uzun) kabi iboralar orqali rivoyatlarning batafsil qismlarini qisqartirgan. Demak, u ba'zan, ma'lumotni to'liq berishdan ko'ra, qisqartirilgan va mazmunni saqlangan matnlarni afzal ko'rgan.

Maqolada, Moturidiyning «Ta'vilot al-Qur'on» asarida sababi nuzul rivoyatlarining uslubiy yondashuvini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Moturidiy, Qur'on, oyat, sababi nuzul, rivoyat, lafzan, ma'nanimazmunan.

Abstract. In Imam Maturidi's Ta'wilat al-Qur'an, the narratives concerning the reasons for revelation (asbab al-nuzul) are conveyed in two main forms: literal (lafzan) and contextual (ma'nanimazmunan). Literal narrations, presented verbatim, are less common. For instance, a narration from Hasan al-Basri mentions that the verse, «If two groups of believers fight each other, then make peace between them», was revealed due to disputes among Muslims. In narrations about the captives of Badr, Maturidi provides comprehensive details, reflecting his tendency to present significant parts of the narrations thoroughly.

Contextual narrations, which convey the meaning rather than the exact wording, are more frequently encountered. For example, in narrations related to the death of Abu Talib, the reason for revelation is briefly summarized. Imam Maturidi's exegetical style in summarizing narrations includes phrases like «أو نحو هذا من الكلام» (or similar words). Occasionally, he uses expressions like «و في الحديث طول» (the narration is long) to condense extensive details. Thus, he sometimes favors concise yet meaning-preserving texts over complete narrations.

This article highlights the stylistic approach to asbab al-nuzul narratives in Maturidi's Ta'wilat al-Qur'an.

Keywords: Maturidi, Qur'an, verse, asbab al-nuzul, narration, literal, contextual.

Аннотация. В статье анализируется трактовка причин ниспослания (сабаби нузул) в произведении Имама Матуриди «Та'вилат аль-Куран». Рассматриваются два основных типа повествования этих хадисов: лафзан (слово в слово) и маънан (по смыслу).

Лафзан (слово в слово) передаваемые хадисы встречаются реже. Например, в хадисе, переданном от Хасана Басри, говорится о причине ниспослания аята: «Если две группы верующих будут сражаться между собой, то сразу же примирите их!» — это связано с разногласиями между мусульманами. В некоторых хадисах, например, касающихся пленных после битвы при Бадре, приводятся подробности событий, что свидетельствует о том, что Имам Матуриди уделял внимание детальному изложению важнейших аспектов хадисов.

Маънан (по смыслу) хадисы встречаются чаще. В таких случаях причина ниспослания передается кратко. Например, в хадисах о смерти Абу Талиба в основном кратко указана причина ниспослания соответствующих аятов. В трактовке Имама Матуриди встречаются фразы вроде «أو نحو هذا من الكلام» (или что-то подобное), которые указывают на сокращение текста, а также «و في الحديث طول» (и в хадисе много слов), что означает сокращение более длинных частей хадиса.

Таким образом, Имам Матуриди часто предпочитал излагать информацию в более краткой и сжато изложенной форме, сохраняя при этом основной смысл.

В статье подчеркивается, что в книге «Та'вилат аль-Куран» Имам Матуриди использует различные методы изложения причин ниспослания, что отражает его стиль подхода к интерпретации хадисов и Корана.

Ключевые слова: Матуридий, Коран, аят, сабаб ан-нузул, предание, буквально, содержательно.

o'xshaydi, u: «Agar, ularni azoblasang, albatta, ular (O'z) bandalaring. Bordi-yu, ularni kechirsang, albatta, Sen O'zing qudrat va hikmat egasidirsan» (Moida surasi, 118-oyat) degan edi. Ey Umar, sizning timsolingiz Musoga o'xshaydi, u: «Ey, Robbimiz! Mol-mulklarini barbod et va dillarini qattiq qil...» (Yunus surpass 88-oyat) degan edi. Yana ey Umar, sizning misolingiz Nuhga o'xshaydi, u: «Ey, Robbimiz! Yer yuzida kofirlardan birorta (tirik) yuruvchini qoldirmagin!» (Nuh surasi, 26-oyat), degan edi», deydi va izidan: «Ularning hech biri sizga fidya bermasdan yoki bo'yinlari kesilmasdan ozod qilinmasin», deydi. Abdulloh ibn Mas'ud: «Suhayl ibn Bayzo bundan mustasno bo'lsin, chunki men uni islomdan gapirganini eshitdim», deydi. Payg'ambar (s.a.v.) sukut qiladi, so'ng «Suhayl ibn Bayzodan tashqari», deydi. Shunda Alloh ushbu oyatni nozil qiladi (Ta'vilot al-Qur'on). Imom Moturidiyning umumiy uslubiga teskari bo'lgan ushbu tafsilotli rivoyat Ibn Abu Shayba (Ibn Abu Shayba, 1429/2008:65-66) va Tabariy (Ta'viliy oyat al-Qur'on, nashr yili ko'rsatilmagan: 56-57) tomonidan ham deyarli bir xil lafzlar bilan keltirilgan.

ASOSIY QISM

Imom Moturidiy ko'pincha sahih hadis manbalarida kelgan sababi nuzul rivoyatlarini o'zining umumiy uslubiga ko'ra, qisqacha yoki ma'nau keltirsa-da, ba'zan oyatning nozil bo'lishiga sabab bo'lgan rivoyatning eng muhim qismini so'zma-so'z ayni lafzlar bilan keltirgan. Masalan, Imom Moturidiy «Na payg'ambar va na mo'minlar mushriklar uchun, garchi ular qarindoshlari bo'lsa ham – ularning do'zax ahli ekanlari ma'lum bo'lgandan keyin – istig'for (gunohlarini kechirishini) so'rashlari joiz emas» (Tavba surasi, 113-oyat) oyatining ancha mashhur bo'lgan sababi nuzul rivoyatini ko'p joyini qisqartirgan holda quyidagicha naql qiladi. Unga ko'ra, Payg'ambar (s.a.v.) amakisi Abu Tolibning yoniga kiradi va uni Allohdan boshqa hech bir iloh yo'qligiga shahodat keltirishga da'vat qiladi. Abu Tolib qabul qilmaydi. So'ngra, Payg'ambar (s.a.v.) unga mag'firat so'raydi va shunday deydi: «Qaytarilmas ekanman, siz uchun mag'firat so'rayveraman / لأستغفرن لك ما لم أنه عنه» yoki shunga o'xshash so'z aytadi. Shunda mazkur oyat nozil bo'ladi (Ta'vilot al-Qur'on, nashr yili ko'rsatilmagan: 462). Ta'kidlanganidek, ushbu rivoyat ko'plab manbalarda qayd etilgan.

Imom Moturidiy Imom Buxoriy va Imom Muslim kabi muhaddislarning sahih hadis to'plamlariga asoslangan rivoyatlarni qay shaklda naql qilgani ahamiyatlidir. Ushbu o'rinda Buxoriy tomonidan keltirilgan rivoyat qiyoslash uchun muvofiq deb topildi.

Said ibn Musayyib otasidan naql qilishicha, Abu Tolib o'lim to'shagida yotganida, Payg'ambar (s.a.v.) uning huzuriga kiradi. Abu Tolibning oldida Abu Jahl ham bo'ladi. Payg'ambar (s.a.v.) «Ey, amaki! La ilaha illalloh deng, ana shu kalimani Alloh huzurida siz uchun hujjat qilaman», deydi. Abu Jahl va Abdulloh ibn Abu Umayya esa: «Ey, Abu Tolib! Abdulmuttalibning dinidan yuz o'girasanmi?, deyishadi. Bu ikkisi tinmay javrayverishgach, Abu Tolibning oxirgi aytgan so'zi «Abdulmuttalib dinida», deyish bo'ladi. Payg'ambar (s.a.v.): «Qaytarilmas ekanman, siz uchun mag'firat so'rayveraman / لأستغفرن لك ما لم أنه عنه» deganidan keyin «Na Payg'ambar va na mo'minlar mushriklar uchun, garchi ular qarindoshlari bo'lsa ham – ularning do'zax ahli ekanlari ma'lum bo'lgandan keyin – istig'for so'rashlari joiz emas» (Tavba surasi, 113-oyat) hamda «(Ey, Muhammad) Siz o'zingiz suygani kishilarni hidoyat qila olmaysiz, lekin Alloh O'zi xohlagan kishilarni hidoyat qilur. U hidoyat topuvchilarni yaxshi biluvchidir» (Qasos surasi, 56-oyat) oyatlari nozil bo'ladi (Buxoriy, 1422/2001:95).

Ko'rish mumkinki, Imom Moturidiy naql qilgan rivoyat ma'no jihatidan Imom Buxoriy keltirgan rivoyat bilan o'xshash bo'lsa-da, oxirgi jumladan tashqari qolgan lafzlarda bir qancha farqlar mavjud. Imom Moturidiy Abu Jahl va Abdulloh ibn Abu Umayya ismlarini hamda ularning Abu Tolib bilan gaplashganini aytmay, rivoyatni qisqacha shaklda keltirgan. Shuningdek, sababi nuzul rivoyatining eng muhim qismi bo'lgan «Qaytarilmas ekanman, siz uchun mag'firat so'rayveraman» jumlasining boshqa manbalarda boshqacha variantlari bo'lishiga qaramay, Imom Moturidiy «Sahihi Buxoriy»dagi bilan bir xil shaklini keltirgan.

Imom Moturidiy «Ta'vilot»da kelgan sababi nuzul rivoyatlarining aksar qismini ma'nau naql qilgan. Bunga asos bo'luvchi eng muhim dalil shuki, «Ta'vilot»dagi ba'zi rivoyatlar hech bir manbada ayni lafzlar bilan uchramaydi. Masalan, Imom Moturidiy tomonidan «Ey, ahli kitoblar, nima uchun Ibrohim haqida bahslashasizlar? Axir, Tavrot bilan Injil undan keyin bo'lgan-ku! Aqlni ishlatmaysizmi?!» (Oli Imron surasi, 65-oyat) oyatining nuzul sababi sifatida ko'rsatilgan rivoyatga

ko'ra, yahudiylar Ibrohim (a.s.) bizning dinimizda edi deyishsa, nasroniylar Ibrohim (a.s) islom dinida bo'lmagani, balki ularning dinida bo'lganini da'vo qilishadi. Shunda mazkur oyat nozil bo'ladi (Ta'vilot al-Qur'on, nashr yili ko'rsatilmagan:326). Ushbu ma'nodagi rivoyat mazmunan o'xshash tarzda ayrim manbalarda qayd etilgan bo'lsa-da, lekin ayni lafzlar bilan so'zma-so'z kelmaydi. Bu esa Imom Moturidiyning ba'zi rivoyatlarni ma'nan naql qilganiga dalil bo'ladi. Shuningdek, rivoyatlarning matnlarida ham ayrim ishoralar mavjud. Bunga ko'ra matnning oxirgi qismida «shunga o'xshash bir so'z» / «أو نحو هذا من الكلام، أو كلام نحو هذا، أو كلام نحوه» kabi jumlar qo'llanilgan. Bu rivoyatlarning ma'nan naql qilinganini bildiruvchi bir belgidir. Mavzuga bog'liq tafsir va hadis kitoblariga qaralsa, Imom Moturidiydan tashqari «أو كلام نحوه» iborasini ishlatgan biror mufasssir yoki muhaddisning yo'qligi hamda «أو نحو هذا من الكلام» va «أو كلام نحو هذا» iboralarining esa manbalarda juda kam o'rinlarda kelgani ma'lum bo'ladi. Masalan, «أو كلام نحو هذا» jumlasini Ibn Abu Shaybaning «Musannaf»ida (Al-Musannaf, nasr yili ko'rsatilmagan:608) va Bayhaqiyning «Shu'ab al-imon»ida (Bayhaqiy, 1421/2000:356) faqat bir o'rinda kelganini ko'rish mumkin.

MUHOKAMA

Imom Moturidiy ushbu jumalarni ishlatgan o'rinlardan biri Ibn Abbos va boshqalar tomonidan naql qilingan rivoyatda bo'lib, unga ko'ra, Usmon (r.a.)ning Ali (r.a.)dan sotib olgan yeri ustida tortishuv bo'ladi. Bu masalada Payg'ambar (s.a.v.)ga murojaat qilishadi. Payg'ambar (s.a.v.) Ali (r.a.)ning foydasiga, Usmon (r.a.)ning zarariga hukm chiqaradi hamda yerni Ali (r.a.)ga beradi. Keyin Usmon (r.a.)ning qavmi: «U amakisining o'g'li. Uni sendan ko'ra ko'proq qadrlaydi», deyishadi. Imom Moturidiy shu o'rinda «yoki shunga o'xshash bir so'z aytishadi / «أو نحو هذا من الكلام» jumlasini qo'llagan hamda rivoyatning davomida ushbu masala yuzasidan «Ular: «Allohga va Payg'ambarga imon keltirdik va bo'yin sundik», deyidilar-u, shundan keyin ulardan bir guruhi yuz o'girib ketur...»(Nur surasi, 47-oyat) oyati nozil bo'lganini (Ta'vilot al-Qur'on, nashr yili ko'rsatilmagan:186-187) qayd etgan. Shunga o'xshash bitta rivoyat dastlabki davr asarlaridan Qummiyning «Tafsir»ida qayd etilgan (Ibrohim Qummiy,1435/2014:713). Mazkur rivoyatlar qiyosi shuni ko'rsatadiki, garchi ularda mazmun jihatidan bir xil mavzular tilga olingan bo'lsa-da, bu rivoyatlar

lafzan bir-biridan ancha farq qiladi. Shuning uchun rivoyatining oxirida ishlatilgan «yoki shunga o'xshash bir so'z / أو كلام نحوه» kabi jumalarni Imom Moturidiyning ba'zi rivoyatlarni ma'nan naql qilishda qo'llagan qaydlari sifatida baholash mumkin.

Imom Moturidiy rivoyatlarning bir qismi sifatida qo'llagan «أو كلام نحوه» jumlasini «Alloh (dini) haqida uni (odamlar tomonidan) qabul qilinganidan so'ng tortishadigan kishilarning hujjatlari Parvardigor nazdida botil (behuda)dir...»(Sho'ro surasi, 16-oyat) oyati uchun keltirgan ikkita sababi nuzulda ishlatgan. Birinchi rivoyatga ko'ra, kofirlar mo'minlarga: «Albatta, Muhammad orangizda ekan va tirik ekan, diningiz islom bordir. U vafot etgach, siz va Islomga ergashganlar dinimizga qaytasizlar», deyishadi. Imom Moturidiy mazkur o'rinda «yoki shunga o'xshash so'z aytdilar / أو كلام نحوه» iborasini qo'llagan hamda yuqoridagi oyat ushbu gap sababli nozil bo'lganini ta'kidlagan (Ta'vilot al-Qur'on, nashr yili ko'rsatilmagan:180). Ikkinchi rivoyatga ko'ra, qurayshliklar: «Biz ko'rmagan, kimligini va qandayligini bilmagan zotga qanday sig'inamiz?», deyishgan. Muallif shundan so'ng «yoki shunga o'xshash so'z aytdilar / أو كلام نحوه» jumlasini bilan rivoyatni davom ettirgan hamda mazkur oyatning ushbu gap sababli nozil bo'lganini qayd etgan (Ta'vilot al-Qur'on, nashr yili ko'rsatilmagan:180). Ushbu o'rinda aytish kerakki, mazkur ibora qo'llanilgan rivoyatlar boshqa manbalarda uchramaydi.

Imom Moturidiy ba'zi iboralarni qo'llash orqali rivoyatlarni qisqacha shaklda keltirganiga ishora qilgan. Mazkur shaklda keltirilgan rivoyatlardan birida, «shu kabi / أو نحو ذلك» jumlasini qo'llanilgan. Imom Moturidiy «Ey, imon keltirganlar! Sizlarga (javobi) a'yon qilinsa, sizlarga xush kelmaydigan narsalar haqida so'ramangiz!...» (Moida surasi, 101-oyat) oyatini Payg'ambar (s.a.v.)ning huzuriga kelib, ba'zi masalalarda savollar so'ragan bir jamoa haqida nozil bo'lganini bayon qilgan. Rivoyatga ko'ra, ulardan biri: «Otam kim?», boshqa biri esa: «Men qayerdaman?», deydi. Imom Moturidiy ayni shu o'rinda «va shunga o'xshash savollar (berishadi) / أو نحو ذلك من الأسئلة» iborasini qo'llagan. Rivoyatning davomida esa Payg'ambar (s.a.v.): «Sen jahannamdasan, sen esa falonchining o'g'lisan», deb javob bergani hamda ularni bu kabi savollarni berishdan qaytargani zikr qilingan (Ta'vilot al-Qur'on, nashr yili ko'rsatilmagan:354). Imom Moturidiyning «shunga o'xshash savollar / أو نحو ذلك»

من الأسئلة» iborasini qo'llashidan bilish mumkinki, rivoyatning ichida boshqa savollar ham mavjud, lekin muallif ularga to'xtalmay, rivoyatni shu shaklda qisqartirib berishni afzal, ko'rgan. Masalan, Muqotil tomonidan keltirilgan rivoyatda Imom Moturidiy aytgan «shunga o'xshash savollar» batafsil bayon qilgan. Unga ko'ra, Payg'ambar (s.a.v.): «Ey odamlar! Dunyo mening oldimga qo'yildi. Qiyomat kunigacha ummatimning orasida sodir bo'ladigan hodisalarga qarayapman. Arablarning nasablari oldimga qo'yildi, ularning nasablarini birma-bir bilaman», deydi. Shunda bir kishi o'rnidan turib: «Men qayerdaman?», deb so'raganida, Payg'ambar (s.a.v.): «Jannatdasan» deb javob beradi. Yana biri turib: «Men qayerdaman», deb so'raydi. Unga ham: «Jannatdasan», deydi. So'ng uchinchi kishi turib: «Men qayerdaman», deb so'raganida, Payg'ambar (s.a.v.): «Do'zaxda», deb javob qaytaradi. Shunda o'sha kishi xafa bo'lib ortiga qaytadi. Keyin Abdulloh ibn Xuzofa turib: «Mening otam kim?», deydi. Payg'ambar (s.a.v.): «Xuzofa», deydi. So'ngra Banu Abduddordan bir kishi turib: «Ey Rasululloh, mening otam kim» deb so'raganida, u zot: «Sening otang Sa'd» deb boshqa kishiga nisbat beradi. Umar (r.a.) o'rnidan turib: «Ey Rasulalloh! Bizning kamchiliklarimizni berkitingki, Alloh ham sizning kamchiliklaringizni berkitsin. Biz shirkdan endigina qutulgan qavmmiz», deydi. Payg'ambar (s.a.v.) unga yaxshi so'zlar aytadi. Shunda yuqoridagi oyat nozil bo'ladi (Tafsuru Muqotil ibn Sulaymon, nashr yili ko'rsatilmagan:508). Ko'rinib turibdiki, Moturidiyning rivoyati Muqotilning rivoyati bilan mazmunan o'xshash, lekin, Imom Moturidiyning rivoyati hajm jihatidan ancha qisqa. Shu sababli Moturidiyni Muqotilning «Tafsir»idan ushbu rivoyatni qisqartirgan holda olgan deyish mumkin.

NATIJA

Imom Moturidiy rivoyatni qisqa shaklda berish uchun qo'llagan jumalardan yana biri «qissada zikr qilinganiday / على ما ذكر في القصة» iborasidir. Moturidiy «Xotinlarni taloq qilganingizda (ular idda) muddatiga yetsalar, bas, ularni yaxshilik bilan olib qolingiz yoki yaxshilik bilan javoblarini beringiz. Ularga zulm qilib, zararlantirish niyatida ushlab turmang...» (Baqara surasi, 231-oyat) oyatidagi «yaxshilik bilan olib qolingiz» buyrug'ining qanday ma'noda kelganini izohlash jarayonida «qissada zikr qilinganiday / على ما ذكر في القصة» jumlasini qo'llagan (Ta'vili oyat al-Qur'on, nashr yili ko'rsatilmagan:652). Muallif shu yo'l orqali rivoyatni qisqartirganini bildirib o'tgan.

Moturidiy rivoyatni qisqartirganiga doir ayrim ishoralarni rivoyatlarning oxirida ham qayd etgan. Shulardan biri «(bu hodisa) hadisda uzundir / و في الحديث طول» jumlasidir. Masalan, Moturidiy «U kunda zolim ikki qo'llarini (barmoqlarini) tishlab (pushaymon qilib), der: «Eh, qani edi, men ham payg'ambar bilan birga bir yo'lni tutganimda!» (Furqon surasi, 27-oyat) oyatining Uqba ibn Muayt haqida nozil bo'lganini aytib, quyidagi rivoyatni keltiradi. Unga ko'ra, Payg'ambar (s.a.v.)ni birodari kabi ko'rgan Uqba u zotni ovqatga taklif qiladi. Payg'ambar (s.a.v.) uning taklifini qabul qiladi. Uqba boshqa bir kuni yana Payg'ambar (s.a.v.)ni ovqatga taklif qiladi. Shunda Payg'ambar (s.a.v.): «Allohdan boshqa iloh yo'qligiga va men Uning payg'ambari ekanimga guvohlik bermaguningcha taomingdan yemayman», deydi. Uqba shunda guvohlik beradi, Payg'ambar (s.a.v.) ham taomidan yeydi. Bu xabarni Ubay ibn Xalaf eshitganida, u borib: «Ey Uqba! Diningni tark etib Muhammadning diniga kirding, da'vatini qabul qilding» deb uni ayblaydi. Natijada Uqba keltirgan guvohligidan qaytib, dindan chiqadi. Moturidiy mazkur o'rinda, ya'ni rivoyatning oxirida «(bu hodisa) hadisda uzundir / و في الحديث طول» iborasini keltirgan, oyatning esa ushbu voqea sababli nozil bo'lganini bayon qilgan (Ta'vilot al-Qur'on, nashr yili ko'rsatilmagan:245). Moturidiy qisqartib bergan mazkur sababi nuzul rivoyati dastlabki davr mufasssirlaridan Muqotil tomonidan biroz batafsilroq shaklda qayd etilgan (Tafsiru Muqotil ibn Sulaymon, nashr yili ko'rsatilmagan:232).

Imom Moturidiy rivoyatni qisqacha ifodalash uchun matn oxirida «qissani oxirigacha qara / إلى آخر القصة» iborasidan ham foydalangan. Masalan, u «Uning (sarf qiluvchining) huzurida (zimmasida) biror kimsaga qaytariladigan ne'mat yo'qdir. U faqat eng oliy zot bo'lmish Parvardigorining «yuz»ini istab (ehson qilur)» (Layl surasi, 19-20-oyatlar) oyatlarini Payg'ambar (s.a.v.)dan xurmozor so'ragan Abu Dahdah haqida nozil bo'lganini qisqacha bildirgan (Ta'vilot al-Qur'on, nashr yili ko'rsatilmagan:239). Ushbu o'rinda Imom Moturidiy rivoyatdan to'liq xabardor bo'lsa-da, uni qisqartirib keltirganini matnning oxirida «إلى آخر القصة» iborasini qo'llash orqali ifodalagan.

Imom Moturidiy ayrim o'rinlarda rivoyatning bir qismini lafzan, ya'ni so'zma-so'z keltirsa, qolgan qismini qisqacha bayon qilish bilan cheklangan. Masalan, u «Kimda-kim Payg'ambarga itoat etsa, demak, u Allohga itoat etibdi. Kimda-kim bosh tortsa,

Sizni ular ustidan qo'riqlovchi qilib yuborganimiz yo'q»(Niso surasi, 80-oyat) oyatining sababi nuzulida shunday uslubdan foydalangan. Unga ko'ra, Payg'ambar (s.a.v.) Madinada: «Kim meni yaxshi ko'rsa, Allohni yaxshi ko'rgan bo'ladi. Kim menga itoat qilsa, Allohga itoat qilgan bo'ladi», deydi. Imom Moturidiy rivoyatning ushbu joyida «munofiqlar bu borada Payg'ambar (s.a.v.)ni ayblaydilar» jumlasini keltirgan hamda payg'ambarning so'zini tasdiqlash uchun mazkur oyat nozil bo'lganini bayon qilgan (Ta'vilot al-Qur'on, nashr yili ko'rsatilmagan:344). Ushbu rivoyat Muqotilning «Tafsir»ida batafsilroq kelganini ko'rish mumkin. Rivoyatning «Payg'ambar (s.a.v.) «Kim meni yaxshi ko'rsa, Allohni yaxshi ko'rgan bo'ladi. Kim menga itoat qilsa, Allohga itoat qilgan bo'ladi» qismini Imom Moturidiy ham, Muqotil ham bir xil shaklda bergan. Imom Moturidiyning «Munofiqlar bu borada Payg'ambar (s.a.v.)ni ayblaydilar» deb qisqacha bergan qismi esa Muqotil tomonidan tafsilotlari bilan zikr qilingan. Ya'ni, munofiqlar: «Bu odamni eshitmayapsizlarmi? Nima deyapti? Allohdan o'zgaga sig'inishni ta'qiqlab (bu gapi bilan o'zi) shirkka yaqinlashdi. Uni bunga undagan narsa shuki, xristianlarning Iso ibn Maryamni Rabb qilib olganlari kabi, biz ham uni Rabb qilib olishimizni istamoqda», deyishadi. Shunda Alloh payg'ambar (s.a.v.)ning gapini tasdiqlash uchun mazkur oyatni nozil qiladi. Ko'rinib turibdiki, Imom Moturidiy qisqacha ishora qilgan ayblash masalasini Muqotil atroficha izohlagan.

XULOSA

Xulosa sifatida aytish mumkinki, Imom Moturidiy sababi nuzul rivoyatlarini ko'pincha lafzan, ya'ni so'zma-so'z berishdan ko'ra, ma'nani yoki qisqartirib berishni afzal deb bilgan. Shu sababli uning rivoyatlarini boshqa manbalarda ayni lafzlar bilan uchratish nihoyatda qiyin. Bu esa rivoyatlarning kelib chiqishini o'rganuvchi tadqiqotchilarning ishini yetarli darajada qiyinlashtiradigan holatdir.

Abu Mansur Moturidiy o'zining «Ta'vilot al-Qur'on» asarida Qur'on oyatlarining nozil bo'lish sabablari haqida 302ta rivoyat keltirgan. Bu rivoyatlar ikki xil shaklda naql qilingan: lafzan (so'zma-so'z) va ma'nani (mazmunan). So'zma-so'z naql qilingan rivoyatlar juda kam bo'lib, ulardan faqat ikkitasi dastlabki asarlardagi kabi aynan takrorlangan. Masalan, Hujurot surasining 9-oyati bilan bog'liq rivoyatni Moturidiy so'zma-so'z Hasan Basriydan keltirgan. Baqara surasining 215-oyati bilan bog'liq rivoyat esa Amr ibn Jamuhdan naql qilinib, Muqotil ibn Sulaymon tomonidan ham tasdiqlangan.

Ko'pgina hollarda, Moturidiy rivoyatlarni qisqartirgan yoki mazmunan naql qilgan. Ba'zi rivoyatlarning matnlari boshqa manbalarda uchramasligi, shuningdek, matnlarda «shunga o'xshash bir so'z» kabi jumlarlar ishlatilishi, uning ba'zi rivoyatlarni ma'nani qayd etganini ko'rsatadi. Shu tarzda, Moturidiy tafsirda oyatlar bilan bog'liq nozil bo'lish sabablarini aniq va izchil yoritib, ularni umumiy tafsir uslubiga muvofiq ravishda naql qilgan..

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Qur'oni karim ma'nolarining tarjima va tafsiri / tarjimon va tafsir muallifi Abdulaziz Mansur. (2004). Toshkent: Toshkent islom universiteti.
2. Abdurazzoq ibn Hammom San'oni. (1999). Tafsiru Abdurazzoq. J. 1-3. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya.
3. Abu Bakr Ahmad ibn Husayn Bayhaqi. (2003). As-Sunan al-kubro. J. 1-10. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya.
4. Abu Hasan Ali ibn Ibrohim Qummiy. (2014). Tafsir al-Qummiy. J. 1-4. Qum: Muassasat al-imom Mahdiy.
5. Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir Tabariy. (1995). Jome' al-bayon an Ta'vili oyat al-Qur'an. J. 1-30. Bayrut: Dor al-fikr.
6. Abu Lays Samarqandiy. Tafsir as-Samarqandiy (Bahr al-ulum). (1996) Bayrut: Dor al-fikr. Vol. 1-3.
7. Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad Moturidiy. (2011). Ta'vilot al-Qur'on. J. 1-18. Istanbul: Dor al-Mezon.
8. Abulhasan Ali ibn Ahmad Vohidiy. (1991). Asbobu nuzul al-Qur'on. Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya.
9. Ibn Abu Shayba / Abu Bakr Abdulloh ibn Muhammad. (2008). Al-Musannaf. J. 1-13. Qohira: al-Faruq al-hadisa li-t-tiboa va-n-nashr.
10. Ibn Abu Xotim / Abdurahmon ibn Muhammad. (1997). Tafsir al-Qur'on al-azim. J. 1-10. Makka: Maktabatu Nizor.
11. Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. (2001). Sahih al-Buxoriy. J. 1-9. Bayrut: Dor tavq an-najot.
12. Muqotil ibn Sulaymon. (2002). Tafsiru Muqotil ibn Sulaymon. J. 1-5. Bayrut: Muassasat at-tarix al-arabiy.

REFERENCES

1. Abdulaziz Mansur. (2004). Qur'oni Karim: Translation and Commentary of Meanings. Tashkent: Tashkent Islamic University.
2. al-San'ani, Abdurazzaq ibn Hammam. (1999). Tafsir Abdurazzaq (Vols. 1-3). Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya.
3. al-Bayhaqi, Abu Bakr Ahmad ibn Husayn. (2003). As-Sunan al-Kubra (Vols. 1-10). Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya.

4. al-Qummi, Abu Hasan Ali ibn Ibrahim. (2014). Tafsir al-Qummi (Vols. 1-4). Qum: Muassasat al-Imam Mahdi.
5. al-Tabari, Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir. (1995). Jami' al-Bayan an Ta'wil Ayat al-Qur'an (Vols. 1-30). Beirut: Dar al-Fikr.
6. al-Samarqandi, Abu Lays. (1996). Tafsir as-Samarqandi (Bahr al-Ulum) (Vols. 1-3). Beirut: Dar al-Fikr.
7. al-Maturidi, Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad. (2011). Ta'wilat al-Qur'an (Vols. 1-18). Istanbul: Dar al-Mizan.
8. al-Wahidi, Abulhasan Ali ibn Ahmad. (1991). Asbab al-Nuzul al-Qur'an. Beirut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya.
9. Ibn Abi Shayba, Abu Bakr Abdullah ibn Muhammad. (2008). Al-Musannaf (Vols. 1-13). Cairo: Al-Faruq al-Hadisa li-t-Tibaa wa-n-Nashr.
10. Ibn Abi Hatim, Abdurrahman ibn Muhammad. (1997). Tafsir al-Qur'an al-Azim (Vols. 1-10). Mecca: Maktabat Nizar.
11. al-Bukhari, Muhammad ibn Ismail. (2001). Sahih al-Bukhari (Vols. 1-9). Beirut: Dar Tawq an-Najat.
12. Muqatil ibn Sulayman. (2002). Tafsir Muqatil ibn Sulayman (Vols. 1-5). Beirut: Muassasat at-Tarikh al-Arabi.

